


ISSN 2091-5594

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

Maxsus son



Toshkent - 2021

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 ***A.G. Turgunboyeva***  
O'smirlilik davrida xarakter-aksentuatsiyasi va xarakterning shakllanishi
- 7 ***M.A. Maxsudova***  
Tuzilgan yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
- 11 ***Z.B. Kurbanova***  
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
- 15 ***Yo. T. Djumanazarov***  
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
- 19 ***S. Yu. Akbarov***  
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
- 23 ***A.A. Xusanov***  
Bo'lg'usi o'qituvchi – logopedlarni inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
- 27 ***D.D. Oriubboyeva***  
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
- 31 ***M.B. Badritdinova***  
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 35 ***Z.O. Rahmatullayeva***  
Bolalarda emotsional intellekti shakllantirishning samarali omillari
- 39 ***D.H. Ergasheva***  
O'quv-bilish faoliyati muhitidabola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
- 43 ***D.H. Ergasheva***  
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
- 47 ***N.O.G'aniyeva***  
O'smirlilik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
- 51 ***N.A. Vaxobova***  
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
- 55 ***F.P. Maucyposa***  
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
- 59 ***Sh. J. To'ychiyeva***  
Psixologik mahorati o'qituvchi – davr talabi
- 63 ***M. Abdullayeva, N. Abdullayeva***  
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
- 67 ***M. Abdullayeva, D. Abdullayeva***  
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
- 71 ***Z.B. Kurbanova, M.N. Rustamova***  
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
- 75 ***Sh. B. Tursunova***  
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
- 79 ***Sh. B. Tursunova***  
O'qituvchi kasbiy kompetensiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
- 83 ***A.A. Soliyev, M.Y. Mirvaliyeva***  
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
- 88 ***G. Tulyaganova***  
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
- 93 ***O.R. Nabiyeva***  
Reproduktiv yoshdagi ayollarning homiladorlik davrida ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar



## OILADAGI MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISHI

**M.ABDULLAYEVA,**

*NamDU maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti*

**N.ABDULLAYEVA,**

*NamDU Psixologiya kafedrası tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada o'smirlik davrida yuzaga keladigan muammolar hamda oilada o'smirlarni tarbiyalash jihatlarini keng yoritilgan. Shuningdek farzand va ota-onalarning muloqotining o'ziga xos sifatlari, oiladagi nizoli xolatlar, bunga sabab bo'luvchi omillar haqida xam so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'smir shaxsi, stress, oila, muloqot, ta'lim-tarbiya, balog'at yoshi, ota-onalik, qadriyat.*

*V статье подробно освещены проблемы, возникающие в подростковом возрасте, а также аспекты воспитания подростков в семье.*

**Ключевые слова:** *Подростковая личность, стресс, семья, коммуникация, образование, возраст совершеннолетия, родительство, ценность.*

*The article covers in detail the problems that arise in adolescence, as well as the aspects of parenting teenagers in the family.*

**Keywords:** *Teenage personality, stress, family, communication, education, adulthood, parenthood, value.*

Ruxan sog'lom inson har bir xalq, millat, davlat kelajagining nurli istiqbolidir. Binobarin, barkamol, ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi. Shaxsda e'tiqod, dunyoqarash, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir. Insondagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni aniqlash va ularga pedagogik psixologiya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda motivatsiya berish maqsadga muvofiqdir. Umuman ijtimoiy hayot jabhalarida oila, tarbiya, muassasalar, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida pedagogik – psixologiyadan foydalanish ta'lim va tarbiyaning shaxslararo ijobiy munosabatlar o'rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi islohatlar, yangilanish, asosan, ta'lim jarayoni orqali o'quvchining o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Har bir bola dunyoni o'zicha anglaydi, shuning uchun bu ayrim hollarda bolalar o'rtasidagi o'zaro tushunmovchilik va mojarolarga sabab bo'ladi. Agar bu



muammolar ulg'aygach o'tib ketganida edi, hayot osonroq bo'lardi, biroq ko'pchilik o'smirlar vaqtida ham muloqotda murakkabliklarga duch keladi.

Hozirgi kunda farzandlar bilan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkillashtirish uchun turli to'siqlar xalaqit beradi. Jumladan, band bo'lish "to'sig'i", ota-onalar doimo band bo'lishadi, farzandlariga e'tibor bermaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko'p. Ammo bu farzandda hissiy rivojlanishni to'xtatishga olib keladi. 2-to'siq yoshga bog'liq bo'lib, bunda kattalarning yoshi ulug' bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Farzandlarining ichki dunyosini hisobga olmaydilar. Kattalar uchun arzimagan narsalar ular uchun muhim bo'lishi mumkin. Eski qolip "to'sig'i" - ota-onalar o'zining farzandini yoshi ulg'ayib borayotganligini sezishmaydi. Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o'rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug'iladi. Biz kattalar farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo'ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga vaqt topa olmaymiz, turli bahonalar qidiramiz. Demak, ota-onalar farzandiga nisbatan bu tariqa qarashlarga barxam berishi lozim. Shunda o'rtadagi to'siqlar yo'qoladi.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Uni oxiri va boshi yo'q. Biz bolani tug'ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Demak, ota-ona bola shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona o'rtasidagi doimiy muloqotdir. Bolani tarbiyasi yaxshi bo'lishi uchun uni sevish kerak. Biz bola bilan muloqotga necha minot vaqt ajratamiz? Shuni o'ylab ko'rish kerak. 1 soat vaqt ajratsak, buyaxshi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ota-ona va bola o'rtasidagi muloqot bir sutkada 1,8 soatni tashkil qilgan ekan. Ona 35 minut muloqotda bo'lgan ekan: "qoming ochmi? Nima yeysan?" kabilar tarzida. Turli yoshdagi bolalarda u yoki bu muammo bo'lishini biz kattalar bilishimiz, unga vaqt ajrata olishimiz kerak. Moddiy g'amxo'rlik bolaga, uning tarbiyasi uchun, muloqoti shakllanishi uchun yetarli emas. Bolani qalbiga quloq solib bilishimiz muhim. Ota-ona o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishining sabablaridan biri bolaga e'tibor bermasligidadir. Nima uchun biz hamkasblarimiz bilan, do'stlarimiz bilan qancha muloqotdabo'lsak ham qoniqmaymiz, lekin farzandimiz bilan kam muloqotda bo'lamiz? Ota-onaning e'tibori oilada hissiyot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Shunday savol tug'iladi: Nima uchun o'smirlar jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolayapti? Masalan, o'smirlar keksa kishini o'lgudek kaltaklashayapti. Demak, biz kattalar farzandimizga e'tiborliroq bo'la olmayapmiz. Ularning ko'ngliga quloq solmayapmiz. Ularda boshqalar g'amiga hamdard bo'lish tuyg'usini shakllantira olmayapmiz. Yoshlar bilan moda haqida gaplashsangiz ular siz bilan ko'ngildan muloqotda bo'ladilar. Shu tariqa ularning ko'ngliga qo'l solish mumkin.

Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o'rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug'iladi. Biz kattalar



farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo'ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga erinamiz. Demak, kattakar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo'qotishlari lozim. Shunda o'rtadagi to'siq yo'qoladi. Tarbiyaviy an'analardagi "to'siq"-ota-onalar oiladagi ilgarigi tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llaydilar, bolani ruhiy rivojlanishi darajasini hisobga olmaydilar. Ular o'zlarining malakalarini oshirish ustida ishlamaydilar. Natijada bola bilan o'rtalarida to'siq paydo bo'ladi, bir-birlarini tushuna olmaydilar. Didaktizm "ber'eni"-bunda ota-onalar bolaga doimo aql o'rgatadilar. "Unday qilma," "Bu to'g'ri, bu noto'g'ri" va h.k. Bolaning har bir qadami o'lchanadi, baholanadi. Bu esa bolada zo'riqishni yuzaga keltiradi, asabiy bo'lib qoladi. Demak, yuqoridagi "to'siqlar"ni yo'qotish uchun ota-ona farzandi bilan to'g'ri muloqotda bo'lish yo'llarini izlab topishi kerak. Shundagina bola bilan til topa olishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, ushbu davrida yuzaga keladigan yana bir muammolardan biri atrofdagilar bilan yuzaga keladigan, nizoli xolatlardir. Mazkur ichki nizolarning paydo bo'lishiga oilaviy munosabatlardagi tortishuv va janjallar, oiladagi salbiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, biror-bir ish, vazifa va topshiriqlarni mustaqil bajarolmaslikni anglash, atrofdagilarning e'tibori qo'llab-quvvatlashi, hurmat - ehtiromini his qilmaslik, erta jinsiy balog'atga etish va boshdan kechirilgan turli kasalliklar ham sabab bo'lishi mumkin. O'smirlar davrida ijtimoiy rollarning ortishi, uni muvaffaqiyatli bajarish bilan bog'liq muammolar ham uning ruhiyatda ichki nizolarning manbai bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchilik roli undan maktabga borishi, vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, tartib-intizomga rioya qilishi, darslarga kechikmay kelishi kabi vazifalarni og'ishmay bajarishini taqazo etsa, uyga borgach bajaradigan farzandlik roli (ota-onasi, qarindoshlari oldida) esa o'quvchilik roldan tubdan farq qiladi. Mazkur rollarning o'zaro mos kelmay qolishi oqibatida o'smir ichki ruhiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Natijada o'smirlar imkon qadar yolg'iz qolishga, ota-onasi, yaqinlari nazaridan chetda bo'lishga intiladilar, do'stlari yoki tengdoshlari bilan kamroq muloqot qilishga urinadilar. Bunday o'smirlar xarakterida esa o'ta ta'sirchanlik, tez xafa bo'lish, jizzakilik, tajovuzkorlik, o'ziga bo'lgan bahoning noadekvatligi, odamovilik kabi sifatlar kuzatiladi. Tengdoshlar, ota-ona va pedagoglar tomonidan tan olinishiga erishishga intilish ehtiyojining qondirilmashligi fojeaday qabul qilinishi ichki nizolarning kuchayishiga olib keladi. O'smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini-o'zi anglashi va baholashidagi o'ziga xoslikni hisobga olish, shaxs sifatida qadrlash ichki nizolarning oldini olishda ijobiy samara beradi.

Bizga ma'lumki, oilada farzand tarbiyasida milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati, ota-onaning farzand yoshiga qarab munosabatda bo'lishi eng e'tiborga



molik masalalardan biridir. Jumladan, bolaning o'z atrofidagilarga munosabati oila a'zolari o'rtasidagi muomalaning axloqiy jihatdan qanchalik yuksakligiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, farzandlarni tarbiyalashdagi eng muhim vaqt ulaming o'smirlilik davri bo'lib, bu davrda bolalarning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, "maslahatlashish", hatto ba'zi oilaviy muammolarni hal etishda ularga tayanish bolada o'ziga va ota-onasiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu yoshdagi o'smirlar o'zlarini va ota-onalarini haqidagi har qanday bahoni kechira olmaydilar. Ota-ona, aka-uka, opa-singillarining kanchiliklaridan qattiq ta'sirlanadilar. Agar ota-ona o'z farzandi oldida obro'sini yo'qotsa, ularga qarshi "isyon" ko'tarishdan ham qaytmaydi. Bu yoshdagi bolalar bilan munosabatda, ularga hurmat-e'tibor ko'rsatishda ota-ona o'smirlarning ishonchi va hurmatini qozonishi muhim.

Xulosa qilib aytganimizda, yuqorida ta'kidlangan farzand tarbiyasidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratilsa va farzandga berilayotgan oila tarbiyasida g'amxo'rlik hamda talabchanlikning munosib ravishda bo'lishi fidoyi, oila va jamiyat oldidagi ma'suliyatini xis etadigan shaxsning kamol topishiga erishish, eng oliy maqsaddan darakdir. O'smirlilik yoshiga yetgan farzandlar bilan muloqotda bosiq va ehtiyot bo'lish, kiyinish, yurish-turish, boshqalar bilan munosabatda, muomalada axloq me'yorlariga rioya etishni ta'kidlab turish maqsadga muvofiqdir. O'smir yoshdagi o'g'il farzand kelajakda vatan himoyachisi bo'lishini nazarda tutgan holda, uni jismonan chiniqtirish, irodasini mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish juda muhim. Shu yoshdagi qizlarga esa mehmon kutishda dasturxon tuzash, tikish, to'qish, pishiriq pishirish, ovqat tayyorlash, uy yig'ishtirish, kir yuvish, non yopish, ukalar va singillar parvarishini o'ngatib borish foydalidir. Odatda o'smir qiz bilan oilada yumshoq, adolatli munosabatda bo'lish, kezi kelganda hamdard bo'la bilish, samimiylik ularda go'zallikni his etish qobiliyatini shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. М. 1997 г. РСФСР. ПФА нашр. 180-бет.
2. Шербаков А.И. Еш психологияси ва педагогик психологиядан практикum. Тошкент, 1991.
3. Каримова V. Oilaviy hayot psixologiyasi. –Т.: 2006.
4. Федотова В.Г. Факторы ценностных изменений на Западе и в России // Вопросы философии, 2005. №11, - С.3.